



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 12 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 12

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 8, ISSUE 12



ТОШКЕНТ-2023

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№12 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2023-12>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'affor

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Artur Gambaryan

yuridik fanlar doktori, professor (Armaniston)

Yosuke Shamoto

yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Xusanov Ozod Tillabayevich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Selimanova Svetlana Mixaylovna

yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Peshkova Xristina Vyacheslavovna

yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

Sung Un Lee

yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ҲУҚУҚРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ruziyev Rustam Jabborovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Borotov Mirodiljon Xomudjonovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Shomuxamedova Zamira Shoislamovna

yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

Ahmad Issa Altweissi

yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

12.00.04 - ҲУҚУҚРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.

Kanton Federal sud markazi (AQSH)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Gasanov Mixail Yuriyevich

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Sattorova Gulnoza Djurakulovna

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Denisov Gleb

yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Skripnikov Nikolay Kuzmich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salayev Nodirbek Saparbayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farxod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirazov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Maxmudov Firuz Baxtiyor o'g'li ZAMONAVIY DAVLAT XIZMATINI TAKOMILLASHTIRISHDA DAVLAT BOSHQARUVI MODELLARINING O'RNI: "NEW PUBLIC MANAGEMENT", "GOOD GOVERNANCE" VA BOSHQA MODELLAR MISOLIDA.....	5
2. Bozarov Sardor Soxibjonovich SUN'IY INTELLEKT FUQAROLIK HUQUQIY JAVOBGARLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	14
3. Исломкулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШГА ОИД ҚОНУНЧИЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ГЕНЕЗИСИ.....	28
4. Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна, Абдуллаев Жамшид Джамилович ФУҚАРОЛИК ВА ОЙЛА ҲУҚУҚИДА ЁРДАМЧИ РЕПРОДУКТИВ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ЮЗАСИДАН ВУЖУДГА КЕЛГАН МУНОСАБАТЛАРНИ ШАРТНОМАВИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ.....	36
5. Улугбеков Баходир Абдасович ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ХОДИМЛАРИНИНГ ШАЪНИ, ҚАДР-ҚИММАТИ ВА ИШЧАНЛИК ОБРЎСИНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	46
6. Фазилов Фарход Маратович ФАКТОРЫ ЛЕГАЛИЗАЦИИ ПРЕСТУПНЫХ ДОХОДОВ.....	54
7. Ҳакимов Комил Бахтиярович ЖАВОБГАРЛИКНИ ЕНГИЛЛАШТИРУВЧИ ҲОЛАТЛАРДА ҚАСДДАН ОДАМ ЎЛДИРГАНЛИК УЧУН ЖАВОБГАРЛИК НАЗАРДА ТУТИЛГАН ЖИНОЯТ ҚОНУНИ НОРМАЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ.....	63
8. Назаров Зафарбек Зокирович БОСҚИНЧИЛИК ЖИНОЯТЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОС МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ.....	73
9. Tosheva Maftuna Anvar qizi AXLOQQA QARSHI JINOYATLARNING TUSHUNCHASI VA ULARNING TAVSIFI.....	81
10. Bazarova Dildora Baxadirovna O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOIY ODIL SUDLOVIDA AYBGA IQRORLIK TO'G'RISIDAGI KELISHUV BILAN BOG'LIQ SHAXSIY HUQUQLARNI AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI.....	90
11. Суюнова Дильбар Жолдасбаевна, Козубенко Юрий Вячеславович ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ТРАНСФОРМАЦИЮ УГОЛОВНОГО СУДОПРОИЗВОДСТВА.....	101
12. Gafurova Sevara Alisherovna KONSULLIK HUQUQI FANINI O'RGANISHNING NAZARIY-HUQUQIY AHAMIYATI VA UNING XALQARO HUQUQIY FANLAR TIZIMIDAGI O'RNI.....	112




12.00.03-ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

Bozarov Sardor Soxibjonovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Kiber huquqi kafedrası professor vazifasini bajaruvchisi,
yuridik fanlar doktori
E-mail: Sardor_bazarov1980@mail.ru

SUN'IY INTELLEKT FUQAROLIK HUQUQIY JAVOBGARLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

For citation: Bozarov Sardor Sokhibjonovich. FEATURES OF CIVIL LIABILITY OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE. Journal of Law Research. 2023, 8 vol., issue 12, pp. 14-27

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10252638>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muallif tomonidan sun'iy intellektning fuqarolik huquqiy javobgarligi masalalari tahlil etilgan. Unda muallif sun'iy intellektning huquqiy maqomiga doir doktrina va qarashlarni tahlil etgan. Shu bilan birga maqolada sun'iy intellektning huquq sub'ektlili bo'yicha asoslantirilgan fikrlar ilgari surilgan. Bundan tashqari, sun'iy intellektning huquq subyektliligi va huquqiy javobgarligini belgilovchi Yaqin istiqbol, O'rta istiqbol, Uzoq muddatli istiqbollari o'rganilgan. Hulusa qismida sun'iy intellekt javobgarligini belgilashning o'ziga hos modellini ishlab chiqish bo'yicha asoslantirilgan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, sun'iy intellektning huquqiy maqomi, sun'iy intellektning huquq subyektliligi, Elektron shaxs, sun'iy intellektning fuqarolik huquqiy javobgarligi, sun'iy intellektning avtonomlik darajasi, roboto-texnika, super sun'iy intellekt (Super AI).

Бозаров Сардор Сохибжонович,
Исполняющий обязанности профессора кафедры Киберправа
Ташкентского государственного юридического университета,
доктор юридических наук
E-mail: Sardor_bazarov1980@mail.ru

ОСОБЕННОСТИ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

АННОТАЦИЯ

В данной статье автором изучены вопросы гражданско-правовой ответственности искусственного интеллекта. В нем автор проанализировал доктрины и взгляды правового статуса искусственного интеллекта. В то же время в статье автором выдвигаются обоснованные предложения о правосубъектности искусственного интеллекта. Кроме того,

изучены ближняя, средняя, долгосрочная перспективы искусственного интеллекта, определяющие субъективность и юридическую ответственность права. В заключительной части выдвинуты обоснованные предложения по разработке конкретной модели определения ответственности искусственного интеллекта.

Ключевые слова: искусственный интеллект, правовой статус искусственного интеллекта, субъективность права искусственного интеллекта, электронная личность, гражданско-правовая ответственность искусственного интеллекта, степень автономности искусственного интеллекта, робототехника, супер искусственный интеллект (супер ИИ).

Bozarov Sardor Sokhibjonovich,
Acting Professor of Cyber Law Department of
Tashkent State Law University,
Doctor of science in Law
E-mail: Sardor_bazarov1980@mail.ru

FEATURES OF CIVIL LIABILITY OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

ANNOTATION

In this article, the issues of civil liability of artificial intelligence have been studied by the author. It has been analyzed the doctrines and views of the legal status of artificial intelligence. At the same time, reasonable proposals on the legal personality of artificial intelligence are put forward by the author. In addition, the prospects of artificial intelligence like Near prospects, Medium prospects, and Long-term prospects which determine the subjectivity and legal responsibility of AI have been studied. In conclusion, the reasonable proposals for the development of a specific model on determining the responsibility of artificial intelligence have been put forward.

Keywords: artificial intelligence, legal status of artificial intelligence, subjectivity of artificial intelligence law, electronic personality, civil liability of artificial intelligence, degree of autonomy of artificial intelligence, robotics, super artificial intelligence (super AI).

Texnik taraqqiyotning hozirgi bosqichida mavjud bo'lgan ijtimoiy munosabatlar inson va sun'iy intellektning ijtimoiy o'zaro ta'sirining huquqiy tarkibiy qismini o'zgartirishni, eng avvalo, raqamli jamiyatning yangi iqtisodiy tartibini tavsiflash uchun yangi atamalar, kategoriyalar va ta'riflarni kiritish orqali asrlar davomida foydalanilgan qonunchilikni o'zgartirishni talab qilmoqda.

Milliy qonunchilikni takomillashtirishning dolzarb maqsadi ushbu tartibga solish sohalarida SI bilan jihozlangan tizimlar, turli xil robotlar va robototexnika obyektlari tomonidan yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar, qilmishlar uchun javobgarlik va huquq subyektlarining tarkibini, huquqiy tartibga solish parametrlari va shartlarini aniqlashtirishdan iborat. Bundan tashqari, ushbu huquq va qonunchilik sohalarining yurisdiksiyasiga inson va fuqaroning qonuniy huquq va erkinliklarini, shu jumladan, shaxsiy daxlsizlik, yozishmalar siri, sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlash masalalari kiradi. Demak, bu yerda yana bir alohida maqsad – barcha huquq subyektlarining qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta'minlash va himoya qilishdir.

Alohida ma'muriy huquq doirasida davlat boshqaruvining modernizatsiyalangan tizimini, jumladan, intellektual raqamli tizimlarni ishlab chiqish va joriy etish yo'lidagi mavjud ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, ushbu ishlanmalar ustidan nazorat, ishlab chiqarish va foydalanishga tayyor qurilmalarni litsenziyalash, ularni standartlashtirish, ekspert baholash va boshqa tegishli masalalar bilan shug'ullanuvchi yangi ijro etuvchi hokimiyat organlarini yaratish haqida gapirish mumkin.

SI javobgarligi huquqiy tabiatiga oid qarashlar tahlili. Ilm olamida yuridik javobgarlikni aksioma sifatida talqin qiluvchi yagona fikr mavjud emasligiga qaramay[1], yuridik javobgarlik turlari har qanday davlatning huquq tizimining bir qismi bo'lgan asosiy davlat huquqiy institutlari maqomiga ega.

Bu tushunchani ilmiy jihatdan o'rganishda Ayzek Azimov, Lawrence B. Solum, Jiahong Chen, Paul Burgess, Hassler S., Morxat P.M., Ponomareva Y. V., Proydakov E.M., Goroxova S.S.,

Popova A.V., Zankovskiy S.S., Mixaylov N.I., Amodei D., Neznamov A., T.Y. Xabrieva, N.N. Chernogor kabi olimlarning hissalarini e'tirof etish joiz.

Yuridik javobgarlik ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan har qanday huquqiy tuzilmaning majburiy elementidir. Inson huquqlari, zamonaviy dunyoning deyarli barcha davlatlarida dunyoviy huquqiy tizimning kvintessensiyasidir. Huquq mavjud bo'lgan joyda esa ushbu huquqni amalga oshirishga qaratilgan majburiyat yoki qonuniy huquq yoki manfaatni himoya qilishga qaratilgan norma bo'lishi kerak. Shunga ko'ra, huquqlarni amalga oshirish va majburiyatlarni bajarishni tartibga soluvchi qoidalar belgilanishi maqsadga muvofiq. Albatta, qoidalarga rioya qilmaslik, majburiyatlarni bajarilmasligining oldini olish uchun javobgarlik belgilanishi zarur, chunki faqat javobgarlik huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan insonlar o'rtasidagi munosabatlarning normal rivojlanishini kafolatlaydi.

Yuridik javobgarlikning bir nechta turlari mavjud, ular orasida bizning tadqiqotimiz doirasida fuqarolik javobgarligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuridik javobgarlikni belgilash huquqi faqat davlatga tegishli bo'lib, uni qo'llash uchun huquqbuzarlik sodir etilishi asos bo'ladi. Huquqbuzarlik tarkibining majburiy elementi huquqbuzarning aybidir.

Tobora ko'payib borayotgan sun'iy intellektidan foydalanish sohalari – maishiy texnika, transport vositalari, tibbiy asbob-uskunalar, haydovchisiz yer va uchuvchisiz havo modullari va boshqa qurilmalarda qaror qabul qilishni avtomatlashtirish (avtonomlashtirish) uchun SI dan tobora ko'proq foydalanilmoqda.

SI ning avtonomlik darajasi ortib borishi ko'plab afzalliklarga ega bo'lsa-da, ma'lum xavflarni ham keltirib chiqaradi. Xususan, SI o'z faoliyati davomida inson sog'ligiga yoki uning hayotiga zarar yetkazish xavfini tug'dirsa, juda ko'p savollar tug'ilishi tabiiy.

Ushbu texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, murakkablik, yangilanish yoki mustaqil o'rganish orqali o'zini takomillashtirishi va bashorat qilish – nima xato bo'lganini va u sodir etilganida kim javobgar bo'lishi kerak ekanligini aniqlashni qiyinlashtirishi mumkin. Sababi, SI ni qo'llashda, aksariyat hollarda, ko'plab taraflar (provayder, konstruktor, ishlab chiqaruvchi, dasturchi, foydalanuvchi va boshqalar) qolaversa, aqlli tizimning o'zi [2] ham mavjud bo'ladi.

Agar inson huquqlarining buzilishiga olib kelgan xato yoki nuqson SI ning cheklangan yoki inson ishtirokisiz, avtonomiyaga asoslangan mustaqil qarori bilan sodir etilgan bo'lsa, vaziyat yanada murakkablashadi. Bundan tashqari, moddiy yo'qotishlar bilan bevosita bog'liq bo'lmagan inson huquqlari buzilishi ancha murakkab va fuqarolik qonunchiligi doirasida qoplanishi mushkul. Insonning konstitutsiyaviy va boshqa huquqlarini buzish oqibatlarini unchalik yaqqol ko'zga tashlanmaydi va moddiy zararga nisbatan baholanishi anchagina qiyin bo'lib hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari sohasi vakillari (SI texnologiyalarini ishlab chiqaruvchilar va konstruktorlar) va boshqalar, shuningdek davlat tashkilotlarining [3] Ayzek Azimov tomonidan ishlab chiqilgan (robot insonga zarar yetkaza olmaydi va hokazo) robototexnika qonunlariga asoslangan axloqiy ko'rsatmalarni qabul qilish va jamoatchilikka e'lon qilish harakatlari kun sayin ortib bormoqda.

Masalan, “Yevropa Ittifoqining axloq direktivasi” [4] ishonchli va xavfsiz SI ni yaratish maqsadini birinchi o'ringa qo'yadi. Biroq, aslida, texnologiya emas, faqat uning orqasida turgan insonlar ishonchli bo'lishi mumkin. Demak, SI tizimlari ishonchli bo'lishi kerak, lekin eng asosiysi, ushbu sohada o'rnatilgan qoidalar ularni dasturlashtirgan mutaxassislar hamda ulardan foydalanish tartib-qoidalari uchun javobgar va mas'ul bo'lgan shaxslarga taalluqli bo'lishi kerak.

Korporativ axloq kodeksining o'zi yetarliligiga tayanadigan bo'lsak, SI tizimlari avtonom tarzda harakat qilishi mumkinligi sababli bu ularning yaratuvchilarini har qanday bilvosita salbiy ta'sirlar uchun javobgarlikdan xalos qilishi mumkin. Ushbu holatda tabiiy savol tug'iladi, agar yaratuvchilar javob bermasa, kim javobgar bo'ladi? Zamonaviy yuridik adabiyotlarda SI ning huquq subyektiligi, shu jumladan, uning ma'lum darajada mustaqil ravishda yuridik javobgarlikni o'z zimmasiga olish qobiliyati mavzusida g'oyat qizg'in muhokamalar olib borilmoqda.

Fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan SI axloqiga oid hujjatlar yetarlicha foyda bermaydi, chunki mashinalarda axloqni shakllantirish, birorta qonunda javobgarlik belgilanmas ekan, ya'ni kuch bilan qo'llab-quvvatlanmas ekan, axloq normalariga rioya qilinishi shubhali.

Shu sababli SI tizimlarini ishlab chiqaruvchilar uchun axloqiy normalarni ishlab chiqish zarur ekanligini istisno qilmagan holda ularni huquqiy qadriyatlar tizimiga singdirishni, ya'ni tavsiya etuvchi emas, balki majburiy normalar orqali mustahkamlashni zarur deb bilamiz.

Jumladan, bir qator mualliflar SIga huquq subyekti maqomini berish masalasini muhokamaga qo'yish hali erta ekanligini asoslab bermoqdalar[5]. Boshqalari esa sun'iy intellektga insonlar tomonidan yaratilgan obyekt sifatida bunday maqom berish imkoniyatini mutlaqo inkor etib, faqat tarmoqda o'z-o'zidan hosil bo'lgan "spontan intellekt" subyekti sifatida qaralishi mumkinligini ta'kidlaydilar[6]. Ayrim tadqiqotchilar esa SI subyektiga huquqiy maqom berishning huquqiy va falsafiy ehtiyoji hozircha yo'qligini ta'kidlab, aqlli mashinalar bilan axloqiy munozaralar kelajakda yuzaga kelishi mumkin deb hisoblaydilar.[7]

Ayni vaqtda SIga elektron shaxsning huquqiy maqomini berish uning avtonom va mustaqilligini tan olish hamda jismoniy va yuridik shaxslarni uning harakatlari uchun javobgarlikdan ozod qilishga emas, aksincha, bunday javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan bo'lishi hamda sun'iy intellekt va uning orqasida turganlarni belgilash muammolarini hal etishi lozim[8].

"Elektron shaxs" tushunchasini belgilashda Yevropa Parlamenti "Civil Law Rules on Robotics" rezolyutsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi[9], u amalda sun'iy intellekt uchun to'laonli huquqiy maqomni, shu jumladan, huquqlar, majburiyatlar (soliqlarni to'lash) va cheklangan javobgarlikni ko'zda tutadi. Yevroparlamentning bu harakati bir qator ekspertlarni 2018-yil aprel oyida omma uchun ochiq xat chop etishga undagan edi. Ushbu maktubga ko'ra, bunday huquqiy maqomni joriy etish noo'rin, g'oyaviy jihatdan mazmunsiz va amaliy jihatdan imkonsiz edi[10].

Yevropa Komissiyasi sun'iy intellekt muammosini hal qilish bo'yicha o'zining keyingi strategiyasini ishlab chiqdi, bunda SIning huquq va erkinliklari hamda majburiyatlari mavjud[11]. Unga ko'ra SI huquq subyekti emas, balki kvazisubyeckt hisoblanadi. Qoida tariqasida, huquqning kvazisubyekti ijtimoiy-huquqiy qadriyatni ifodalaydi, uning ahamiyati yuridik hamjamiyatda e'tirof etiladi. Kvazisubyeckt huquq subyekting boshqa zaruriy va yetarli belgilari bo'lmaganda bir yoki bir nechta belgilariga ega. Ko'pincha huquqning kvazisubyekti huquqiy layoqat, yuridik javobgarlik, yagona huquqiy irodani ishlab chiqish qobiliyatiga ega emas. Kvazisubyektning yana bir belgisi uning huquq subyektiligi qonun chiqaruvchi, sud yoki yuridik hamjamiyatning bir qismi tomonidan tan olinishi hisoblanadi. Huquqning kvazisubyektlari orasida shunday e'tirofga sazovor bo'lgan, lekin hech qachon huquqiy sifatlarga ega bo'lmagan va huquq subyekti tabiatiga mos kelmaydiganlari ham bor. Bular qatoriga robotlar va SI ham kiradi[12].

SI texnologiyalarining o'rnini belgilashning yana bir yondashuvi, kuchli yoki o'ta kuchli SI uchun moslashtirilgan, qisman huquqiy layoqat tushunchasi bo'lib, bunda SIga huquq va majburiyatlar yuklangan bo'ladi. Ayni damda uning harakatlari uchun javobgarlik jismoniy va yuridik shaxslar zimmasida qoladi[13].

Misol uchun, Rossiya Federasiyasi "2030-yilgacha sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasida"[14] ma'lum hajmda insonlarga taqlid qila oladigan "texnologik yechimlar majmuasi" uchun asosiy alomat sifatida, birinchi navbatda, inson aqlining mustaqil o'rganish qobiliyati kabi xususiyati belgilanadi. Bu qobiliyat fundamental bo'lib, barcha insonlarning farovonligi, milliy xavfsizlik va iqtisodiy to'kislikni ta'minlash maqsadida, yaqin kelajakda shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimida SIning o'rnini belgilashda ahamiyatlidir.

SIning ushbu talqiniga asoslanib, biz texnologik rivojlanishning hozirgi bosqichida zaif SI (tor maqsadli SI)ning hozirda allaqachon mavjudligi, shuningdek, kuchli SIning yaqin kelajakda paydo bo'lishi istiqbollari haqida fikr yuritish mumkin degan xulosaga kelamiz.

Ayni damda yuqori darajada avtonomlashgan SI – super intellekt (Super AI) hali mavjud emas, ammo uning uzoq kelajakda paydo bo'lishi ilmiy jihatdan bashorat qilinmoqda. Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan zaif SI inson tomonidan yaratilgan algoritmgga to'liq bog'liq holda ishlaydi va faqat algoritmda to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan vazifani bajarishga qodir, ya'ni insonlarga muayyan muammoni hal qilishda "ko'mak beradi". Sun'iy intellektning ushbu turi maxsus vosita va texnika

sifatida ta'riflanishi mumkin, bunda kompyuter avvaldan to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, berilgan savollarga javob berishi va shu asosda o'z xulosalarini chiqarishi mumkin[15].

Tabiiy intellektga ega bo'lmagan, oldindan belgilangan diapazonda ishlaydigan zaif SI, albatta, hatto juda xohlasa ham tabiiy aqlga yaqinlasha olmaydi, shuning uchun uning ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, huquqiy munosabat subyekti deb hisoblash mumkin emas. Shu sababli keyingi texnologik rivojlanish bosqichida SIning Super SI maqomiga ega shakli paydo bo'lishi mumkinligi, uning huquq subyektligiga oid munozarani faollashtiradi. Fikrimizcha, hozirgi bosqichda sun'iy intellekt tizimlari javobgarligi haqida berilishi mumkin bo'lgan yagona fundamental universal mulohaza shundaki, ularni inson aqli tomonidan yaratilgan ijod mahsuli boshqa narsa deb hisoblash uchun hech qanday falsafiy, texnologik yoki huquqiy asoslar mavjud emas.

Biz ushbu ilmiy qarashlarni uzoq istiqbolga doir deb hisoblaymiz. Nazarimizda, hozirgi amaliyotda javobgarlik qoidalarini hisobga olgan holda nazariy jihatdan aybdor deb topish mumkin bo'lgan va SI qurilmadan foydalanish natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladigan shaxsni aniqlashning imkoniyati mavjud.

SI tizimlari statistik ma'lumotlar tahliliga asoslanib qaror qabul qilishda ko'pincha insonlar, ayniqsa, irqiy va gender nuqtayi nazaridan muayyan ijtimoiy guruhlarini noqulay ahvolga solishi mumkin, masalan ishga qabul qilish va boshqa shunga o'xshash holatlarda[16].

Avtonom transport vositalarining tezlik bilan ko'payishi, tibbiyot sohasida sun'iy intellektidan foydalanishning ortib borishi muqarrar ravishda SI bilan bog'liq jarohatlar xavfini oshiradi. Misol uchun, AQShda "Uber" avtonom mashinasini sinovdan o'tkazish loyihasida sobiq haydovchi Rafaela Vaskes Arizona shtatining Katta jyurisi[17] tomonidan 2018-yilda Arizona shtati Tempe shahrida piyoda Eleya Gersbergning o'limida ayblangan. Mashina 19 daqiqa davomida avtomatik boshqarish rejimida bo'lgan. Faqat o'z xatosini tan olib, to'qnashuvga bir necha soniya qolganda boshqaruvni inson haydovchiga qaytardi, inson haydovchi bu vaziyatda avariyaning oldini olishga qodir emas edi. Hodisadan so'ng davlat organlari umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida test o'tkazishni taqiqladi, "Uber" esa "haydovchisiz" tajribani yopdi va 300 nafar operatorni ishdan bo'shatdi.

S. Goroxova qayd etganidek, SI texnologiyalari, xususan, mashinali o'rganish taraqqiy etib borishi natijasida yuzaga keladigan murakkabliklar kelajakda turli zarar, yo'qotishga olib kelishi muqarrar. Masalan, intellektual mulk huquqi sohasida, maxfiylikni ta'minlashda, iqtisodiyot, moliyaviy xizmatlar sohasida[18].

Bu holat texnik hamjamiyat oldiga ikkita noqulay, ammo jiddiy savol qo'yadi, bu fojia yuz berishi muqarrarmi? Biz bunday hodisalarga ko'nikishga qanchalik tayyormiz?[19]

Ishlab chiqaruvchilar tomonidan avtomobil sensorli texnologiyalari normal haydash sharoitida uchraydigan g'ayrioddiy shakldagi obyektlarni to'g'ri idrok eta olmasligi ayni haqiqat, bunday xatolar halokatli to'qnashuvlarga olib kelishini taxmin qilish qiyin emas. Shunga qaramay, mavjud yuridik amaliyot, bu holatda qanchalik asosli ko'rinishidan qat'i nazar, inson operatorning (ishlab chiqaruvchini emas) aybini izlash yo'lidan bormoqda. Bu tendensiya davom etishi mumkin, chunki isbotlash nuqtayi nazaridan, bu obyektiv jihatdan osonroq, chunki hozirda sinovdan o'tayotgan avtonom avtomobillar boshqaruvi 100 metrdan ortiq kodlarni o'z ichiga olishi mumkin, hech bir dasturchi buni o'zboshimcha hal qila olmaydi. Haqiqiy yo'lda barcha mumkin bo'lgan holatlarni oldindan bilishi uchun, ular doimiy ravishda o'rganishi, doimiy yangilanishlarni joriy etishi zarur.

Biz bu borada S. Goroxovanning fikriga qo'shilamiz, chunki ushbu texnologiyalarni ishlab chiqaruvchilar beparvolik qilib huquqbuzarliklarning oldini oladigan choralarni ko'rmasa, javobgar bo'lishi lozim.

Shunga qaramay, yangi texnologiyalarni dunyoga chiqarishda texnologiya sanoatiga savol tug'iladi, biz farmatsevtikada kuchli nazorat rejimini amalga oshiramiz, yadroviy texnologiyalar ustidan nazorat qilish uchun barcha choralarni ko'ramiz, insonni klonlashni taqiqlashni qo'llab-quvvatlaymiz. Xo'sh, mazkur taqiq va chora tadbirlar nega raqamli innovatsiyalarga ham tatbiq qilinishi mumkin emas?

Bundan tashqari, hozirgi kunda SI mustaqil o'rganish, hatto mustaqil ravishda xatti-harakatlarini tuzatish qobiliyatiga ega. Muayyan xatti-harakatni bashorat qilish ko'pincha uning

operatori tomonidan emas, uning o'zi tomonidan amalga oshiriladi. Texnologiya qanchalik keng tarqalsa, u qanchalik murakkab bo'lsa, ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilar ishiga huquqiy baho berish ham shunchalik muammoli ko'rinadi.

Qolaversa, SI o'z xatti-harakatlarini mustaqil ravishda o'rganishi va sozlashi mumkinligi sababli uning xatti-harakatlarini aniq bashorat qilish ko'pincha deyarli imkonsiz. Yuqorida aytib o'tganimizdek, SIga huquq subyekti maqomini berishga hali erta. Biz ijtimoiy ahamiyatga ega sohalarida fuqarolik muomalasida foydalanish uchun yangi SI texnologiyalarini qabul qilishning alohida ma'muriy tartib-taomilini qonunchilikda belgilashni taklif qilamiz. SI mahsuloti yangi versiyasining paydo bo'lishida bevosita ishtirok etgan har bir shaxs uchun tegishli javobgarlikni belgilash zarur.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, SI tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni uni dasturlashtirgan yoki uning ishlashi uchun javobgar bo'lgan shaxs o'z zimmasiga oladi. Agar SI huquqni qo'llash amaliyoti doirasida oshiqcha xavf tug'diradigan manba sifatida tan olinsa, ushbu yondashuv maqbul bo'ladi. FK 999-moddasiga ko'ra[20], faoliyati tevarak-atrofdagilarga oshiqcha xavf tug'diradigan yuridik shaxslar va fuqarolar (transport tashkilotlari, sanoat korxonalari, qurilishlar, transport vositalarining egalari va boshqalar) oshiqcha xavf manbai yetkazgan zararni, agar zarar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch yoki jabrlanuvchining qasddan qilgan harakati oqibatida yuzaga kelganini isbotlay olmasalar, to'lashlari shart.

Ushbu norma potensial xavfli faoliyat turlari ro'yxatini o'z ichiga oladi, lekin ro'yxat ochiq va sud ro'yxatga kiritilmagan boshqa faoliyat turlarini ham xavfli deb topishga haqli.

Demak, sud qaroriga ko'ra, SI oshiqcha xavf manbai sifatida tan olinishi mumkin. Masalaning huquqiy yechimi hatto amaldagi qonunchilik doirasida ham hal qilinishi mumkin, ammo bizningcha, bu yerda huquqiy tartibga solishni yanada oqilona hal etish uchun Fuqarolik kodeksining 999-moddasi 1-qismini yangi tahrirda bayon etish lozim, bu to'g'ridan to'g'ri SI texnologiyalari oshiqcha xavf manbai ekanligini ko'rsatadi:

Faoliyati tevarak-atrofdagilarga oshiqcha xavf tug'diradigan yuridik shaxslar va fuqarolar (transport tashkilotlari, sanoat korxonalari, qurilishlar, transport vositalarining egalari va boshqalar), shuningdek, sun'iy intellekt mahsulotlaridan foydalanuvchilar, oshiqcha xavf manbai yetkazgan zararni, agar zarar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch yoki jabrlanuvchining qasddan qilgan harakati oqibatida yuzaga kelganini isbotlay olmasalar, to'lashlari shart.

Bundan tashqari, barcha yangi yaratilgan va muomalaga kiritilayotgan SI texnologiyalarining potensial xavfidan kelib chiqib, bizning fikrimizcha, amalga oshirilgan foydalanuvchilar keng doirasi uchun mo'ljallangan joriy etilgan texnologiyalarni ekspertizadan o'tkazishning ma'muriy tartibini belgilash zarur.

Sini tartibga solish javobgarlik qoidalariga nisbatan ham bir xil va universal bo'lishi mumkin emas. Sini tartibga solishga qaratilgan har qanday urinish tegishli texnologiyaga xos bo'lishi kerak. Shu sababli majburiyatlar muvozanatini ta'minlash uchun bunday tizimlarni yaratish, ishlab chiqarish va qo'llash bilan bog'liq, nazorat qilish va texnik xizmat ko'rsatishga oid majburiyatlar majmuini yaratish kerak.

Misol uchun, ishlab chiqaruvchilar SI texnologiyasini uning ishlashi to'g'risidagi ma'lumotlarni yozib olish vositalari bilan jihozlashi kerak, chunki bunday ma'lumotlar texnologiyaning potensial xavfli ekanligini aniqlashda kerak bo'lishi tabiiy. Taklif etilayotgan yangiliklarni asoslash uchun sun'iy intellekt tizimlarining ishlashi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarning ikki xil turi o'rtasidagi konseptual farqni aniqlashtirish muhim:

Konstitutsiya va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan inson huquqlarining buzilishi;

inson salomatligi, mulki yoki atrof-muhitga moddiy zarar yetkazish. Bular alohida va turli tushunchalar va oqibatlardir. Misol uchun, agar SI texnologiyasi biror kimsaning shaxsiy ma'lumotlarini tibbiy diagnostika qayta ishlash jarayonida oladigan bo'lsa va ular keyinchalik Internetda tarqalib ketsa, bu shaxsiy hayot daxlsizligi buzilishi deb hisoblanadi, ammo bu hech qanday moddiy zarar keltirmaydi.

Haydovchisiz mashina yo'lda yirtqich hayvonni urib yuboradi, bu yerda aksincha, ziyon mavjud emas, ammo inson huquqlari buzilmaydi.

Yana bir holat ham bo'lishi mumkinki, haydovchisiz avtomashina inson boshqaruvidagi boshqa avtomashinaga urilib, moddiy zarar yetkazadi, odam vafot etadi. Hozirgi vaqtda inson huquqlari buzilishi va moddiy zararining kombinatsiyasi mavjudligini tushunish juda muhim, chunki agar moddiy zararni qoplash bilan bog'liq vaziyat fuqarolik huquqi doirasida javobgarlik (zararni qoplash yo'li bilan) yoki javobgarlikni sug'urta qilish institutlaridan foydalangan holda osonlikcha hal qilinsa, moddiy yo'qotishlar bilan bevosita bog'liq bo'lmagan inson huquqlari buzilishiga oid vaziyat fuqarolik qonunchiligiga muvofiq qoplanishi ancha murakkab va qiyin.

Aynan shu yerda insonning konstitutsiyaviy (va boshqa) huquqlarini ta'minlashni kafolatlaydigan, buzilish oqibatlarini unchalik aniq bo'lmagan va moddiy zarardan ko'ra o'lchash qiyinroq bo'lgan ommaviy javobgarlik turlarini nazarda tutish kerak.

Huquq subyektlarining an'anaviy tushunchasi jismoniy va yuridik shaxslar, ommaviy yuridik shaxslarning iqtisodiy munosabatlar ishtirokchisi sifatida tan olinishidan kelib chiqadi. Huquqning turli sohalarida huquq subyektlarining tegishli jihatlarini ajratib turadi, xususan, bozor munosabatlari ishtirokchilari uchun tadbirkorlik huquqida hal qiluvchi omillarni ro'yxatga olish yoki boshqa yo'l bilan qonuniylashtirish, iqtisodiy kompetensiya, mulkiy baza, shuningdek, qonun hujjatlarining boshqa talablari mavjudligi bilan belgilanadi.

Ishbilarmonlik munosabatlarida bu mezonlarga, xususan, yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxslar, xo'jalik birlashmalari va ommaviy yuridik shaxslar javob beradi[21]. Huquq subyektliligi masalasi sovet yurisprudensiyasidan boshlangan uzoq tarixga ega. Huquq subyektliligi subyektiv huquqlarga va majburiyatlarga ega bo'lish qobiliyatini (huquqiy layoqatni) hamda ushbu huquq va majburiyatlarni mustaqil ravishda amalga oshirish qobiliyatini (muomala layoqatini) qamrab oladi. Shu bilan birga, subyektiv huquq shaxsga tegishli ruxsat etilgan xatti-harakatlarning o'lchovi sifatida qaraladi.

Robotlar (mashinalar) yoki sun'iy intellektga ega kiberfizik tizimlar haqida nima deyish mumkin? Ular huquq obyekti yoki huquq subyektimu? Amalda tadbirkorlik subyekti qayd etilgan belgilarini, masalan, sanoat SI robotida topish mumkin. Masalan, robot ro'yxatdan o'tishi (deylik, Davtexnazoratda) va raqamga ega bo'lishi mumkin, o'z faoliyati maqsadlariga mos keladigan iqtisodiy kompetensiyaga ega bo'lishi, mulkiy bazaga ega bo'lishi, chunki robot apriori moddiy qiymatdir, u qonuniy javobgarlikka tortilishi mumkin (masalan, javobgarlik sifatida dasturchi tomonidan majburiy o'chirish yoki o'zgartirish).

Demak, bir qarashda, SI robot ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini amalga oshirganda, huquq subyektliligi alohida elementlariga ega. Shu bilan birga, robot moddiy olam obyekti bo'lgan va qiymatga ega bo'lgan huquq obyekti sifatida namoyon bo'lishi ham mumkin. (mulk – texnologiya).

Agar insonning rivojlanish bosqichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda biologik rivojlanishning dastlabki bosqichida har bir shaxs katta yoshdagidek fikrlash to'liqligi va qaror qabul qilish tezligiga ega emas. O'rganish orqali inson yillar davomida to'g'ri qarorlarni ishlab chiqish uchun ongini yaxshilaydi. Shunga o'xshash manzara SI rivojlanishida ham kuzatiladi, dastlab fikrlash va o'zini o'zi takomillashtirish kelajak rivojlanishi uchun boshlang'ich bosqichdir.

Robot, shu jumladan, sun'iy intellekt faoliyati javobgarligi haqida gapirganda, A. Azimovning "robototexnikaning uchta qonuni"ni esga olish kerak, zotan, ularning dolzarbligi hanuzgacha yo'qolmagan:

- 1) robotning harakatlari (harakatsizligi) insonga zarar yetkazmasligi kerak;
- 2) robot inson buyruqlariga bo'ysunishi kerak, buyruqlar birinchi qonunni buzgan hollar bundan mustasno;
- 3) robot birinchi va ikkinchi qonunlar doirasida o'z xavfsizligi haqida g'amxo'rlik qilishi kerak.

Ushbu fundamental qoidalar robot xatti-harakatlarini huquqiy baholash uchun asos yaratadi. Ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellektni javobgarlikka tortishga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud,

jumladan, robotni dasturlashtirgan shaxsning javobgarligi, robotni asbob-uskuna sifatida ishlatadigan shaxsning javobgarligi, super aqlli robot mustaqil javobgarligi[22].

SI roboti faoliyati negizida xatti-harakatlarini oldindan aytib bo'lmaydigan raqamli algoritm yotadi, bu sun'iy intellektning xavfsizlik muammolari haqidagi asarda juda aniq ochib berilgan[23]. Jumladan, robotga sun'iy intellektning salbiy dasturini o'rnatish orqali uning tomonidan dasturni buzish natijasida yuzaga keladigan qilmishlarni istisno etib bo'lmaydi.

Sun'iy intellekt faoliyati uchun yuridik javobgarlikni huquqiy tartibga solishning istiqbolini uch davrga bo'lish mumkin: qisqa muddatli (keyingi bir necha o'n yilliklar), o'rta muddatli (XXI asrning o'rtalaridan oxirigacha) va uzoq muddatli (XXII asr boshidan).

Yaqin kelajakda SI robotlari Fuqarolik kodeksining 81-moddasi qoidalariga muvofiq, ixtirolar, sanoat namunalari, fan, adabiyot, san'at asarlari va intellektual faoliyatning boshqa natijalari ko'rinishidagi huquq obyekti sifatida ko'rib chiqiladi.

Intellektual robot, shuningdek, kompyuter dasturi ko'rinishidagi kiberjismaniy tizim qonun bilan belgilangan fuqarolik huquqlari obyektlari muomalasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda sotilishi yoki boshqacha tarzda begonalashtirilishi mumkin[24].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Fuqarolik kodeksining 999-moddasiga binoan, sun'iy intellektdan foydalanish bilan bog'liq faoliyat uchun javobgarlik ushbu intellektdan oshiqcha xavf obyekti sifatida foydalanadigan shaxslar zimmasiga yuklanadi. Shu bilan birga, oshiqcha xavf manbai deganda amalga oshirilishi shaxs tomonidan uni to'liq nazorat qilishning imkoni yo'qligi sababli zarar yetkazish ehtimolini oshiradigan har qanday faoliyat tushuniladi[25].

Ishni ko'rib chiqayotganda, har bir holatda, sud u yoki bu obyektning "oshiqcha xavf manbai" toifasiga tegishli ekanligini mustaqil ravishda aniqlashga haqli. Shubhasiz, aqlli robotlar, shuningdek, aqlli kompyuter dasturiy ta'minot mahsulotlari bunday huquq obyektlari hisoblanadi. Binobarin, qonun hujjatlarida sun'iy intellekt faoliyati uchun javobgarlikka tortish tartibini belgilovchi zarur qonun normalari alohida qonun sifatida kiritilgan, biroq, mavjud huquqiy qoidalarda, sun'iy intellektning moddiy timsoli (robot shaklida) va raqamli shaklda (kiber-fizikaviy kompyuter dasturi shaklida) harakatlari uchun javobgarlikni egasi tomonidan o'z zimmasiga olishini nazarda tutadi.

Moddiy dunyo obyektlariga nisbatan mulk huquqi nuqtayi nazaridan mulkdorning vakolatlari uchligida (egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish) egalik qilish potensial foydalanish bilan narsaga haqiqiy egalik qilishni o'z ichiga oladi, foydalanish esa huquq obyektidan foydali xususiyatlarni olishdan iborat. Xususan, aqlli robotlarga nisbatan har bir shaxs uning foydalanuvchisi emas (masalan, robotni foydalanuvchi ijaraga yoki kredit shartnomasi bo'yicha vaqtincha foydalanish uchun berishda).

Ya'ni tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish faoliyatida robotning foydali xususiyatlarini olish foydalanuvchi tomonidan uning egaligidan ajratilgan holda sodir bo'lishi mumkin.

Qonunchilikdagi umumiy yondashuvga ko'ra, sun'iy intellekt ishi uchun javobgar shaxs sifatida uning egasi tan olinishi kerak. Shu bilan birga, "haqiqiy huquqbuzar javobgarligi" (foydalanuvchi) konstruksiyasidan foydalanishga ruxsat beriladi. Xususan, Fuqarolik kodeksining 999-moddasi 5-qismiga binoan, sun'iy intellekt egasi shu manba yetkazgan zarar uchun, agar manba egasining tasarrufidan boshqa shaxslarning g'ayrihuquqiy harakatlari (harakatsizligi) natijasida chiqib ketganligini isbotlasa, javobgar bo'lmaydi. Bunday holda javobgarlik uni qonunga xilof ravishda egallab olgan shaxsga yuklanadi. Egasi ushbu manbani o'z tasarrufidan qonunga xilof ravishda olib qo'yishda aybdor bo'lgan taqdirda javobgarlik mulkdorga ham, yuqori xavf manbasini qonunga xilof ravishda egallab olgan shaxsga ham yuklanishi mumkin. Ya'ni huquqiy munosabatlarning har bir ishtirokchisining xulq-atvoriga huquqiy baho beriladi.

Tadbirkorlik subyektlarini sun'iy intellektdan foydalanganlik uchun javobgarlikdan ozod qilish holatlari Savdo-sanoat palatasi tomonidan belgilanadigan fors-major holatlaridagina amalga oshirilishi mumkin[26].

Ikkinchi javobgar shaxs sifatida SI robotini yoki SI kompyuter dasturiy kompleksini yaratuvchisi (ishlab chiqaruvchisi) tan olinishi kerak, chunki sun'iy intellekt egasi har doim ham

sun'iy intellekt ishiga texnik ta'sir ko'rsatishga, shuningdek, ularning xatti-harakatlarini bashorat qilishga qodir emas.

Jumladan, Fuqarolik kodeksiga ko'ra, SI roboti yoki SI kompyuter dasturiy ta'minot tizimi konstruksiyasi, tuzilishi haqida yetarli ma'lumot berilmaganligi sababli fuqaroning hayoti, sog'lig'i yoki mulkiga yoki yuridik shaxsning mulkiga yetkazilgan zarar uchun: 1) sotuvchi yoki 2) ishlab chiqaruvchi tomonidan, ularning aybi va jabrlanuvchi ular bilan shartnoma munosabatlarida bo'lgan-bo'lmaganligidan qat'i nazar, kompensatsiya to'lanishi kerak.

Sun'iy intellektni huquq obyekti sifatida yoki huquq obyekti tarkibida ko'rib chiqishning yuqoridagi asoslari huquqiy ta'limotni jiddiy o'zgartirishni talab qilmaydi.

Robototexnikani rivojlantirishning keyingi bosqichi robotlarda huquq subyektlari jihatlarini paydo bo'lishi munosabati bilan yuzaga keladi. Bunda V.V. Arxipov va V.B. Naumovlar ijtimoiy munosabatlarning yangi ishtirokchilari – “robot-agent” va “robot-agent egasi”ni joriy qilishni taklif qiladi[27]. Shu bilan birga, “robot” tushunchasini (mulk sifatida) bellgilashda robototexnika to'g'risidagi qonun hujjatlari qoidalarini, “robot agent”ga ta'rif berishda esa uning huquq layoqati (huquq subyekti sifatida) ochib beriladi.

Taklif etilayotgan “robot agent” atamasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu taklifning istiqbolli tomoni robotni huquqiy munosabatlarning rasmiy ishtirokchisi sifatida qonuniylashtirishdir. Shu bilan birga, robot agentni egasi robot agent uchun javobgar ekanligi haqidagi fikr bahsli, chunki universal g'oya robot agentning mustaqil shaxsiy javobgarligini ko'zda tutadi. Robot agentning xatti-harakatlari uchun uning egasini javobgarlikka tortish to'g'risidagi taklif noto'g'ri, robot agentni ishlab chiqargan, unga xizmat ko'rsatgan yoki ta'mirlagan shaxsning aybi bundan mustasno.

Bizningcha, V.V. Arxipov va V.B. Naumov ilgari surgan takliflarda ijobiy jihatlar mavjud, ammo ayrim masalalari hanuzgacha ochiq qolmoqda. Jumladan, bir muammo yuzaga kelmoqda agar robot o'z nomidan ish tutsa, uning xatti-harakatini “o'z manfaatlariga qaratilgan harakatlar” deb hisoblash mumkinmi? Zero, robot inson tomonidan jamiyat manfaatlari yo'lida o'ylab topilgan ijod mahsulidir. Keyin biz faqat robotning “operativ” yoki “texnik” manfaatlari haqida gapirishimiz mumkin.

Muhim masala SI robotining qonuniy javobgarligi chegaralari bo'ladi. Xususan, robotni kelajakda nochor (bankrot) deb e'lon qilishga ruxsat beriladimi? Bir qarashda bu shubhali. Ayni damda qonunchilikni rivojlantirishning bunday yo'nalishini istisno qilib bo'lmaydi, SI robotni to'lovga qodir emas deb haqiqatda tan olish va tegishli vaqt davomida fuqarolik muomalasida qatnashishini texnik jihatdan cheklash (fuqaroning bankrotligi oqibatlariga o'xshash[28]) mexanizmi amal qiladi.

Sun'iy intellekt javobgarligi – huquqshunoslar uchun bugungi kunda eng muhim masalalardan biri. Ushbu yo'nalishda robotning hozirgi va yaqin kelajakdagi harakatlarini baholash uchun blokcheyn texnologiyasiga asoslangan taqsimlangan ma'lumotlarni ro'yxatga olish tizimi foydali bo'lib[29], u sun'iy intellekt harakatlarini izchil qayd etish imkonini beradi. Ushbu ro'yxatga olish uchun mas'uliyat sun'iy intellektning egasi zimmasiga yuklatiladi. Bunda vakolatli davlat organlari SI tizimi “qora quti”sida sodir etilgan harakatlarni aniqlash uchun texnik imkoniyatga ega bo'lishi kerak.

O'rta istiqbol kelajakdagidan farq qiladi, birinchi navbatda, SI robotining huquq subyektliligini tan olishdan oldin robot yuridik faktlarni keltirib chiqaradigan harakatlarni amalga oshirish talab etiladi (masalan, tadbirkorlik faoliyati). Shunday qilib, o'rta muddatli istiqbolda SI robotining protsessori faqat inson miyasiga o'xshash raqamli hisoblash funksiyasini bajaradi, robotning ajralmas elementi sifatida ishlaydi va huquq obyekti sifatida qaraladi. Robototexnika va sun'iy intellektni rivojlantirishning ko'rib chiqilayotgan davri ham sun'iy intellekt yaratuvchisining qonuniy javobgarligini istisno etmaydi.

Robototexnika, sun'iy intellektni rivojlantirishning taklif etilayotgan vaqt bosqichlari va sun'iy intellektning huquq subyektliligi va huquqiy javobgarligini belgilovchi qonun hujjatlari quyidagicha tavsiflanadi.

1. Yaqin istiqbol. Sun'iy intellektga ega robot huquq obyekti sifatida ko'rib chiqiladi. Operator yoki uning ishlash parametrlarini belgilovchi va uning xatti-harakatlarini nazorat qiluvchi

boshqa shaxs sun'iy intellektning ishlashi uchun qonuniy javobgardir. Sun'iy intellektni yaratuvchisi (ishlab chiqaruvchisi) ham javobgar shaxs sifatida tan olinadi.

2. O'rta istiqbol. SI robotlari huquq subyektliligiga ega bo'lmaydi, mustaqil yuridik javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Sun'iy intellekt yaratuvchisining javobgarligi robotning javobgarligi bilan birga subsidiar xususiyatga ega bo'ladi. SI robotining xatti-harakatlarini huquqiy tartibga solish uning irodasining avtonomligi prinsipiga asoslanadi, lekin uni yaratishning asosiy maqsadi – insoniyat manfaati uchun xizmat qilish. Robot boshqaruvi o'z-o'zini boshqarish rejimida bo'ladi.

3. Uzoq muddatli istiqbol. Sun'iy intellekt nafaqat huquq subyekti maqomiga ega bo'ladi, balki virtual (raqamli) makonda, moddiy dunyodan ajratilgan holda mavjud bo'ladi. Kiberjismoniy munosabatlar subyektlarining huquqiy maqomi va mazmuni, yuridik faktlar va yuridik javobgarlikka tortish mexanizmlarini belgilab beruvchi kodifikatsiyalashgan normativ-huquqiy hujjat qabul qilinadi.

T.Y. Xabriyeva va N.N. Chernogorning ta'kidlashicha, “yangi raqamli voqelik yuridik fan va huquqiy amaliyotga, jumladan, jamiyat hayotining turli sohalarini huquqiy tartibga solishning samarali vositalari va modellarini ishlab chiqishga yangi talablar qo'yadi. Yuristlarning vazifasi bu voqelikka huquqiy shakl berishdir”[30].

Shu bilan birga, tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Yevropa Parlamenti tomonidan taklif qilingan elektron shaxsning taklif qilingan huquq subyektliligi tabiati ushbu hujjatda tushuntirilmagan va hali aniq emas, ehtimol, kelajakda aniqlanishi mumkin[31].

Biz T.Y. Xabriyeva va N.N. Chernogorning fikrlariga qo'shilamiz. Darhaqiqat, kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan holatlar mutlaqo oldindan aytib bo'lmaydi. Biroq, shunga qaramay, SI tomonidan insonga zarar yetkazish va javobgarlik masalasiga huquqiy yechim topish darkor.

Jeyms Garfort sun'iy intellekt noqonuniy harakatlarining quyidagi holatlarini ta'kidlaydi:

- sun'iy intellekt tomonidan insonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va saqlash, bunday ma'lumotlardan qonunga xilof maqsadlarda foydalanish, bunday ma'lumotlarga kirish huquqiga ega bo'lmagan shaxslarga berish, shuningdek, bunday ma'lumotlarni unga kirish huquqini bermasdan to'plash;

- sun'iy intellekt mahsuloti tomonidan shaxsiy yoki boshqa ma'lumotlarni noqonuniy oshkor qilish orqali inson huquqlarining buzilishi;

- sun'iy intellekt mahsuloti orqali haqoratli tarzda o'zaro aloqada bo'lish natijasida inson huquqlarini buzish;

- sun'iy intellekt mahsuloti tomonidan shaxs yoki bir guruh shaxslarga nisbatan kamsituvchi qarorlar qabul qilinishi;

- intellektual faoliyat natijalarini yaratuvchi sun'iy intellekt intellektual mulk huquqi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishi[32].

Shu bilan birga, sun'iy intellekt mahsulotiga huquq subyekti maqomini berish baribir uning noqonuniy xatti-harakatlari yoki harakatsizligi uchun kim aniq javobgar bo'lishi masalasini hal qilishga, xususan, tegishli javobgarni aniqlash muammosini hal qilishga yordam beradi. Shu sababli hozirgi bosqichda sun'iy intellekt mahsulotlaridan foydalanishning asosiy huquqiy muammosi – sun'iy intellekt mahsulotining harakatlari (yoki harakatsizligi) natijasida zararli oqibatlarining kelib chiqishi uchun huquqiy javobgarlikni aniqlash muammosi. Bundan tashqari, agar tijorat tashkilotini boshqarishda yoki axborot xizmatlarini ko'rsatishda qo'llanadigan SIning xatosi nisbatan oson kuzatilishi va tuzatilishi mumkin bo'lsa va jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelmasa, aksincha, SI davlat boshqaruvi doirasida qaror qabul qilishda bunday xatolikka yo'l qo'yish jamoat manfaatlariga, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Hozirgi vaqtda sun'iy intellekt mahsulotlarining quyidagi asosiy xususiyatlari ularning huquq subyektliligini va o'z harakatlari uchun huquqiy javobgarlik qobiliyatini aniqlash muammosining dolzarbligini belgilaydi:

- avtonomlik;
- o'rganish va o'z-o'zini o'rganish qobiliyati;
- aqli fikrlash va harakat qilish qobiliyati. [33]

Ushbu parametrlarning kombinatsiyasi dastlab ishlab chiqaruvchi yoki dasturchi tomonidan taqdim etilmagan harakatlarni bajarish ehtimoliga olib keladi. Bunday kutilmagan harakatlarning mumkin bo'lgan doirasi ham muhimdir. Yangi avlod robotlarining xavfsizligi bilan bog'liq xavflar bir qator mualliflar tomonidan 2 toifaga bo'lingan:

- bunday robotlarni ishlab chiqarish standartlaridan kelib chiqadigan xavflar (bunday xavflarni huquqiy va normativ texnik tartibga solish, baholash va rejalashtirish jarayonlari orqali boshqarish mumkin);

- robotlarning avtonom faoliyatidan kelib chiqadigan xavflar (yangi avlod robotlarining avtonom faoliyati ularning faoliyati bilan bog'liq xavflarni murakkab, o'zgaruvchan va oldindan aytib bo'lmaydigan qiladi, shuning uchun xavfni baholashga mutlaqo boshqacha yondashuv talab qiladi)[34].

Sun'iy intellekt mahsulotlaridan tobora ko'proq foydalanish ularning xavfsiz ishlashi uchun javobgarlikni operatorlardan ishlab chiqaruvchiga o'tkazadi, bundan kelib chiqadigan barcha axloqiy va huquqiy oqibatlar ham ko'chib o'tadi. Shu sababli, Buyuk Britaniya Qirollik muhandislik fanlari akademiyasining fikriga ko'ra, ushbu sohadagi faoliyatni litsenziyalash turiga, xususan, ushbu sohadagi axloqiy tamoyillarni o'rganish va hisobga olishga doir talablarni belgilash zarur bo'lishi mumkin[35].

Agar sun'iy intellekt mahsuloti (agent, tizim) o'z harakatlari uchun bevosita javobgarlikni o'z zimmasiga olishga qodir emas, bunday mahsulot huquq subyekti bo'la olmaydi, deb taxmin qilsak, boshqa muammo yuzaga keladi. Ushbu muammo javobgarlikning tegishli subyektini aniqlash bilan bog'liq, chunki sun'iy intellekt mahsulotining xatti-harakatlarini tartibga solish va boshqarish bilan shug'ullanadigan shaxslar doirasi, aslida, haddan tashqari kengdir. Bu doiraga SI egasi, operatorlar, dizaynerlar va dasturchilar kirishi mumkin.

An'anaviy yechim aybsiz javobgarlikka tortishni o'z ichiga olgan qat'iy mustahkamlangan javobgarlik instituti bo'lishi mumkin, ammo Jek Balkin ta'kidlaganidek, bu, birinchidan, bu sohadagi innovatsiyalarni sezilarli darajada cheklashi, "bo'g'ib qo'yishi" mumkin, ikkinchidan, u huquq nuqtayi nazaridan unchalik maqbul emas[36].

Sun'iy intellekt mahsulotlari ishidagi ba'zi nosozliklar inson va jamiyat uchun xavfli bo'lib, zarar yetkazishi mumkin. Gabriel Hallevi quyidagi vaziyatni misol qilib keltiradi: sun'iy intellekt bilan jihozlangan qamoqxona qo'riqchisi qamoqxonadagi tartibsizliklarning oldini olish, qochib ketan mahbuslarning sog'lig'i va hayotiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan kuch ishlatishni minimallashtirish vazifasini bajaradi.

Ushbu vazifani bajarish uchun bunday dasturiy ta'minot to'plami kiber-fizik tizimlar (aktuatorlar bilan) yordamida kuch ishlatishi mumkin. Ushbu vaziyatda mahbus qochishga harakat qiladi. Dasturiy ta'minot to'plami ushbu urinishni aniqlaydi va muammoni hal qilish uchun kiber-fizik tizimni (jismoniy moddiy robot) yuboradi. Bunday holda bu robot sun'iy intellektga ega dasturiy kompleksning bir qismimi yoki uning o'zi avtonom sun'iy intellektga egami, muhim emas. Muammoni hal qilish uchun yuborilgan robot mahbusni mahkam ushlab qochishga urinishning oldini oladi. Natijada bu mahbus azob chekadi va jismoniy kuch ishlatilgani xususida da'vo kiritadi. Robotning harakatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, u ta'sirning yengilroq o'lchovini tanlashi mumkin bo'lsa-da, baribir ma'lum bir zararli harakatni tanlagan. Bunga sabab shu ediki, robot xavflarni sezilarli darajada oshirib yubordi. Shu sababli bunday vaziyatda huquqiy masala – mahkumning sog'lig'iga zarar yetkazganlik uchun kim javobgar bo'lishini aniqlash lozim[37].

Xulosa o'rnida, bizning yondashuvimizga ko'ra, sun'iy intellekt mahsulotining zararli oqibatlarning paydo bo'lishiga olib kelgan xatti-harakatlari uchun javobgarlikni belgilashning quyidagi asosiy modellarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

- haqiqiy aktor vositasi modeli, unda sun'iy intellekt mahsuloti prinsipial jihatdan aybsiz agent, huquqbuzarlikning haqiqiy ijrochisining quroli sifatida qabul qilinadi;

- tabiiy ehtimoliy oqibatlar modeli, uning doirasida sun'iy intellekt mahsuloti uni ishlab chiqarish/dasturlashning tabiiy, mantiqiy izchil yoki ehtimoliy oqibati (hosilasi) bo'lgan harakatlarni amalga oshiradi, bunda javobgarlik uni yaratgan va/yoki ishlab chiqargan shaxslar zimmasiga yurklanadi;

- sun'iy intellekt mahsulotining bevosita o'z harakatlari (yoki harakatsizligi) uchun bevosita javobgarligi modeli;

- sun'iy intellekt mahsuloti egasi va/yoki operatorining ushbu mahsulotning niyatlari va harakatlarini to'g'ri talqin qilmaganligi va ushbu xatti-harakatlarning oldini olmaganligi uchun javobgarlik (beparvoligi uchun javobgarlik) modeli.

Ushbu modellarning har birini qabul qilish va amalga oshirish uchun turli xil qonunchilik yondashuvlari va chora-tadbirlar majmui talab qilinadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Скребнева, Н. А. Юридическая ответственность в публичном и частном праве: вопросы теории и практики: дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.01 / Н. А. Скребнева. – Москва, 2017., С. 189 (Skrebneva, N. A. Legal responsibility in public and private law: questions of theory and practice: dis. ...cand. legal Sciences: 12.00.01 / N. A. Skrebneva. – Moscow, 2017., P. 189).
2. Апостолова Н.Н. Ответственность за вред, причиненный искусственным интеллектом//Северокавказский юридический вестник. 2021. № 1. С. 112-119. (Apostolova N.N. Liability for harm caused by artificial intelligence // North Caucasus Legal Bulletin. 2021. No. 1. P. 112-119).
3. Ethics guidelines for trustworthy AI. – URL: <https://ec.europa.eu/digital-single-market/en/news/ethics-guidelines-trustworthy-ai>
4. Европейская этическая хартия об использовании искусственного интеллекта в судебных системах и окружающих их реалиях – URL: // <https://rm.coe.int/ru-ethical-charter-en-version-17-12-2018-mdl-06092019-2-/16809860f4> (European Ethical Charter on the use of artificial intelligence in judicial systems and the realities surrounding them - URL: // <https://rm.coe.int/ru-ethical-charter-en-version-17-12-2018-mdl-06092019-2-/16809860f4>)
5. Lawrence B. Solum. Legal Personhood for Artificial Intelligences// North Carolina law review. V.70 №4.1992
6. Jiahong Chen, Paul Burgess. The boundaries of legal personhood: how spontaneous intelligence can problematise differences between humans, artificial intelligence, companies and animals// Artificial Intelligence and Law, – 2019, 73–92. – URL: <https://doi.org/10.1007/s10506-018-9229-x>
7. Hassler S. Do We Have to Build Robots That Need Rights? // IEEE Xplore. – URL: <http://ieeexplore.ieee.org/stamp/stamp.jsp?arnumber=7864739>.
8. Морхат П.М. Юнит искусственного интеллекта как электронное лицо// Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Юриспруденция. – 2018, № 2. С.6 – 73. (Morhat P.M. Artificial intelligence unit as an electronic person // Bulletin of the Moscow State Regional University. Series: Jurisprudence. – 2018, No. 2. P.6 – 73.)
9. Civil Law Rules on Robotics European Parliament resolution of 16.02.2017 with recommendations to the Commission on Civil Law Rules on Robotics (2015/2103(INL)). EP reference number: P8_TA (2017)005 // – URL:https://www.europarl.europa.eu/doceo/document/TA-8-2017-0051_EN.html.
10. Open letter to the European commission artificial intelligence and robotics. – URL: <https://www.politico.eu/wp-content/uploads/2018/04/RoboticsOpenLetter.pdf>.
11. Revised Issues Paper on Intellectual Property Policy and Artificial Intelligence. – URL: https://www.wipo.int/meetings/en/doc_details.jsp?doc_id=499504.
12. Пономарева Е. В. Субъекты и квазисубъекты права: теоретико-правовые проблемы разграничения: автореферат дис... кандидата юридических наук: 12.00.01 / ФГБОУ ВО Уральский государственный юридический университет. – Екатеринбург, – 2019., С. 32. (Ponomareva E. V. Subjects and quasi-subjects of law: theoretical and legal problems of differentiation: abstract of the thesis... candidate of legal sciences: 12.00.01 / Federal State Budgetary Educational Institution of Higher Education Ural State Law University. – Ekaterinburg, – 2019., p. 32.)

13. Jan-Erik Schirmer, Gregor Bachmann. Artificial Intelligence and Legal Personality: Introducing Teilrechtsfähigkeit: A Partial Legal Status Made in Germany. Berlin.2018. – URL: https://www.rewi.hu-berlin.de/de/lf/l/bcm/team/jan-erik-schirmer/publikationen-und-vortraege/Schirmer_RegulatingAI_Teilrechtsfaehigkeit.pdf
14. Указ Президента РФ от 10.10.2019 N 490 «О развитии искусственного интеллекта в Российской Федерации» (вместе с “Национальной стратегией развития искусственного интеллекта на период до 2030 года”) // Официальный интернет-портал правовой информации. – URL: <http://www.pravo.gov.ru>, 11.10.2019. (Decree of the President of the Russian Federation of October 10, 2019 N 490 “On the development of artificial intelligence in the Russian Federation” (together with the “National Strategy for the Development of Artificial Intelligence for the period until 2030”) // Official Internet portal of legal information. – URL: <http://www.pravo.gov.ru>, 10.11.2019.)
15. Пройдаков, Э.М. Современное состояние искусственного интеллекта / Научно-исследовательские исследования. М.: Институт научной информации по общественным наукам РАН, – 2018., С. 129–153. (Proydakov, E.M. Current state of artificial intelligence / Scientific research. M.: Institute of Scientific Information for Social Sciences of the Russian Academy of Sciences, 2018, pp. 129–153.)
16. Попова А.В. Этические принципы взаимодействия с искусственным интеллектом как основа правового регулирования // Правовое государство: теория и практика. – 2020., № 3 (61). С. 34–43. (Popova A.V. Ethical principles of interaction with artificial intelligence as the basis of legal regulation // Rule of law: theory and practice. – 2020., No. 3 (61). pp. 34–43.)
17. https://translated.turbopages.org/proxy_u/en-ru.ru.b923275d-63d6c148-2172d26f-74722d776562/https/arstechnica.com/cars/2020/09/arizona-prosecutes-uber-safety-driver-but-not-uber-for-fatal-2018-crash/.
18. Горохова С.С. Искусственный интеллект: инструмент обеспечения кибербезопасности финансовой сферы или киберугроза для банков // Банковское право. – 2021. № 1. С. 35–46. (Gorokhova S.S. Artificial intelligence: a tool for ensuring cybersecurity in the financial sector or a cyber threat for banks // Banking Law. – 2021. No. 1. P. 35–46.)
19. Franken-algorithms: the deadly consequences of unpredictable code. – URL: <https://www.theguardian.com/technology/2018/aug/29/coding-algorithms-frankenalgos-program-danger>
20. <https://lex.uz/docs/180552>.
21. Занковский С.С., Михайлов Н.И. Предпринимательское право в XXI веке: истоки и перспективы – 2018: С.70–75. (Zankovsky S.S., Mikhailov N.I. Business law in the 21st century: origins and prospects – 2018: pp. 70–75.)
22. Морхат П.М. Искусственный интеллект: правовой взгляд. – М.: Буки Веди, – 2017. – С.257 (Morhat P.M. Artificial intelligence: legal view. – М.: Buki Vedi, – 2017. – P.257)
23. Amodei D. et al. Problems in AI Safety // arXiv:1606.06565v1 [cs.AI] 2016. – URL: <https://arxiv.org/pdf/1606.06565v1.pdf> Azimov A. Robotaround. – N.Y: Basic Books, – 1960. P. 253
24. Саидов А.Х., Окулов О.О. Некоторые аспекты усиления правовых основ защиты прав и законных интересов субъектов творческой деятельности // Труды по интеллектуальной собственности (Works on Intellectual Property). – 2022. Т. 41, № 2. С. 38–43; DOI: <https://doi.org/10.17323/tis.2022.14454> (Saidov A.Kh., Okyulov O.O. Some aspects of strengthening the legal framework for protecting the rights and legitimate interests of subjects of creative activity // Works on Intellectual Property. – 2022. T. 41, No. 2. P. 38–43; DOI: <https://doi.org/10.17323/tis.2022.14454>)
25. Незнамов А. Законы робототехники. Как регулировать искусственный интеллект: – URL: <http://www.forbes.ru/tehnologii/355757-zakony-robototekniki-kak-regulirovat-iskusstvennyy-intellekt> (Neznamov A. Laws of robotics. How to regulate artificial intelligence: – URL: <http://www.forbes.ru/tehnologii/355757-zakony-robototekniki-kak-regulirovat-iskusstvennyy-intellekt>)

26. Закона РФ от 7.07.1993 № 5340-1 «О торгово-промышленных палатах в Российской Федерации» // Ведомости СНД и ВС РФ. 1993. № 33. Ст. 1309 (ред. Федерального закона от 30). (Law of the Russian Federation of July 7, 1993 No. 5340-1 “On Chambers of Commerce and Industry in the Russian Federation” // Gazette of the Council of People's Commissars and the Supreme Court of the Russian Federation. 1993. No. 33. Art. 1309 (as amended by Federal Law No. 30).)
27. Архипов В.В., Наумов В.Б. Искусственный интеллект и автономные устройства в контексте права: о разработке первого в России Закона о робототехнике // Труды СПИИ РАН. – 2017. Вып. 6. С. 46–62. (Arkhipov V.V., Naumov V.B. Artificial intelligence and autonomous devices in the context of law: on the development of Russia’s first Law on Robotics // Proceedings of SPII RAS. – 2017. Issue. 6. pp. 46–62)
28. Х. Федерального закона от 26.10.2002 № 127-ФЗ «О несостоятельности (банкротстве)» // СЗ РФ. 2002. № 43. Ст. 4190 (в ред. Федерального закона от 27.12 2018 № 514-ФЗ «О внесении изменений в Федеральный закон «О рынке ценных бумаг» и отдельные законодательные акты Российской Федерации в части совершенствования правового регулирования осуществления эмиссии ценных бумаг» // ФЗ РФ .2018. № 53 (часть I). Ст. 8440). (X. Federal Law of October 26, 2002 No. 127-FZ “On Insolvency (Bankruptcy)” // SZ RF. 2002. No. 43. Art. 4190 (as amended by the Federal Law of December 27, 2018 No. 514-FZ “On Amendments to the Federal Law “On the Securities Market” and certain legislative acts of the Russian Federation in terms of improving the legal regulation of the issue of securities” // Federal Law of the Russian Federation .2018. No. 53 (Part I). Art. 8440).)
29. Nakamoto S. Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System. – URL: <https://bitcoin.org/bitcoin.pdf>
30. Хабриева Т.Я., Черногор Н.Н. Право в условиях цифровой реальности // Журнал российского права. – 2018. – № 1. – С. 85–102., С. 102.
31. Krausová A. Intersections between Law and Artificial Intelligence // International Journal of Computer. – 2017. – Vol. 27. – № 1. – P. 55–68. – P. 59. – URL: <http://ijcjournal.org/index.php/InternationalJournalOfComputer/article/viewFile/1071/464>.
32. Garforth J. Electronic Personhood: The Law and Artificial Intelligence – URL: // <https://jamesgarforthresearch.files.wordpress.com/2016/10/internshipolicybrief.pdf>. – 2 p. – P. 2.
33. Редькина А.И. Концепция автономности в праве: теоретический аспект // Право и образование. – 2016. – № 11. – С. 13–21; Редькина А.И. Концепция автономности в праве: особенности, функции и проблемы применения // Право и образование. – 2016. – № 12. – С. 110–117. (Redkina A.I. The concept of autonomy in law: theoretical aspect // Law and Education. – 2016. – No. 11. – P. 13–21; Redkina A.I. The concept of autonomy in law: features, functions and problems of application // Law and Education. – 2016. – No. 12. – P. 110–117.)
34. Weng Y.H., Chen C.H., Sun C.T. The legal crisis of next generation robots: on safety intelligence // Proceedings of the 11th international conference on Artificial intelligence and law. – Stanford (California, USA), – 2007. – P. 205–209. – P. 206–207.
35. Robotics and artificial intelligence: A response to the House of Commons Science and Technology Committee inquiry into robotics and artificial intelligence / The RoyalAcademy of Engineering // – URL: <https://www.raeng.org.uk/publications/responses/robotics-andartificial-intelligence>. – 2016. – 6 p. – P. 6.
36. 430 Balkin J.B. The Path of Robotics Law // California Law Review. – 2015, June. – Vol. 6. – P. 45–60. – P. 52. – URL: <https://scholarship.law.berkeley.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1071&context=clrcircuit>.
37. Hallevy G. Liability for crimes involving artificial intelligence systems. – Cham: Springer International Publishing, 2015. – 257 p. – P. 21–22.

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 12 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 12

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 8, ISSUE 12

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000